| | | |
|---|---|---|
| **7.** | O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil _4_ - _iyun_ dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (_16_ - sonli bayonnoma). | |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:** N.Xamidova – O'zDJTU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi mudiri | |
| **9.** | **Taqrizchilar:** N.Xalmurzaeva – ToshDSHU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. M.Ibragimova – O'zDJTU, "Yapon filologiyasi" kafedrasi dotsenti | |

Sharq filologiyasi fakulteti dekani ________ D.Djurayev

Yapon filologiyasi kafedrasi mudiri ________ N.Hamidova

Universitet axborot resurs markazi direktori ________ S.Kayumova



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALARVAZIRLIGI**
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**Tasdiqlayman:**
Rektor ________ I.Tuxtasinov
2025-yil "4" _iyun_

**Ro'yxatga olindi:**
*BD60230100-OG'I2404*
2025-yil "4" _iyun_

# OG'ZAKI NUTQNI TAKOMILLASHTIRISH FANINING O'QUV DASTURI

**2-kurs**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – | San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 | – | Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 | – | Filologiya va tillarni o`qitish (yapon tili) |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| OG'T2404 | 2025-2026 | 4 | 4 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Tanlov | yapon | | 4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Og'zaki nutqni takomillashtirish | 48 | 72 | 120 |

2\.

**I. Fanning mazmuni**

**Fan maqsadi:**

Ushbu fan talabalarni yapon tilida erkin, aniq va to'g'ri og'zaki muloqot qilishga o'rgatishga qaratilgan. Talabalar turli nutqiy vaziyatlarda (rasmiy, norasmiy, kundalik, akademik) mos ifodalar, grammatik shakllar va so'z boyligidan foydalangan holda fikr bildirish, savol-javob qilish, suhbatlashish, taqdimot o'tkazish va nutq madaniyatini rivojlantirish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

Fan shuningdek, talaffuz, intonatsiya, tezlik va ohang ustida ishlash, tinglab tushunish va og'zaki fikrni mantiqiy izchillikda bayon etishga yo'naltiriladi.

**Fan vazifalari:**

1. Yapon tilining talaffuz, urg'u va intonatsiya qoidalarini o'rgatish.
2. Kundalik suhbatlar va nutqiy vaziyatlarga mos iboralarni qo'llashni rivojlantirish.
3. Og'zaki muloqotda grammatika va leksikani to'g'ri ishlatishga o'rgatish.
4. Tinglab tushunish ko'nikmalarini mustahkamlash.
5. Monolog, dialog va munozara ko'nikmalarini shakllantirish.
6. O'z fikrini og'zaki shaklda izchil va ravon bayon etish qobiliyatini rivojlantirish.
7. Taqdimot qilish va nutqiy chiqishlarga tayyorlanish malakasini oshirish.
8. Yapon tilida og'zaki nutq madaniyati va muloqot etiketini o'zlashtirish.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOP-300 talik ro'yxatga kiruvchi Tsukuba university ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.

https://www.tsukuba.ac.jp/en/academics/ug-courses-openclass/

**II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**



to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

**4 (yaxshi) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3 (qoniqarli) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

6\.

**Asosiy adabiyotlar**

1. Yamamoto, Shiro. *翻訳の授業*. 朝日新聞出版, 2020.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

2. 岡本牧子、氏原庸子「比べてわかる中級日本語表現」、Jリサーチ出版、2020

**Axborot manbalari**

https://www.jpf.go.jp

https://www.tofugu.com

https://www.nhk.or.jp/lesson

3. Muloqotda qo'llaniladigan leksik birliklar, grammatik konstruktsiyalar va nutq etiketini biladi.

*Ko'nikmalar*

4. Kundalik, rasmiy va akademik vaziyatlarda to'g'ri va mos ravishda muloqot qila oladi.
5. Og'zaki fikrni izchil, mantiqiy va tushunarli shaklda bayon qila oladi.
6. Savol-javob, suhbat, bahs va muhokamalarda faol ishtirok etish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
7. Tinglab tushunish orqali asosiy ma'lumotni ajrata oladi va qayta ifodalay oladi.

*Kompetensiyalar*

8. Yapon tilida 3–5 daqiqalik og'zaki chiqish (taqdimot, nutq, hikoya)ni mustaqil tayyorlab bera oladi.
9. Talaffuz, urg'u va intonatsiyani to'g'ri qo'llash malakasiga ega bo'ladi.
10. Og'zaki nutqda uslubiy nozikliklar va madaniy moslikka rioya qiladi.
11. Real muloqot vaziyatlarida erkin va ishonchli gapira oladi.

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruh, mikroguruh bo'lib ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tog'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 (a'lo) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni



1. Yapon alifbolari asosida talaffuz mashqlari (Hiragana, Katakana, Kanji o'qilishi)
2. Urg'u va intonatsiya mashqlari – sodda gaplarda
3. Oddiy salomlashuv, tanishuv va o'zini tanishtirish mashqlari
4. Savol-javob shakllari (so'roq gaplar, qisqa javoblar)
5. Kundalik suhbatlarda odatiy iboralar (oshxona, do'kon, transport vaziyatlari)
6. Talaffuzdagi xatolarni tahlil qilish va to'g'rilash
7. Dialoglarda hurmat shakllari (敬語 - keigo)ni qo 'llash
8. Yo'l so'rash va yo'l tariflash suhbatlari
9. Rasmiy vaziyatlarda nutq – telefon orqali gaplashish
10. O'z fikrini bildirish va bahslashishning sodda usullari
11. Tanish mavzular bo'yicha kichik dialog tuzish (ob-havo, ta'til, o'qish)
12. Rol o'ynash mashqlari (restoranda buyurtma berish, mehmon kutib olish)
13. Kundalik hayot haqida monolog (Mening kuni, mening oilam)
14. Qisqa hikoya aytib berish (rasm asosida)
15. Oddiy voqeani izchil so'zlab berish (kecha bo'lgan hodisa)
16. Shaxsiy fikrni asoslashga o 'rgatish (意見を述べる)
17. Qiziqishlar, hobbi va orzular haqida og'zaki taqdimot
18. Tinglab tushunish asosida monolog tuzish
19. Madaniy mavzularda suhbat (yapon urf-odatlari)
20. Akademik mavzularda bahs-munozara (talaba–talaba, talaba–o'qituvchi)
21. Og'zaki chiqish va taqdimotda strukturani to'g'ri tuzish
22. Nutq tezligini boshqarish, pauza va ohangni to'g'ri qo'llash
23. Yakuniy loyiha: mavzuga tayyorlanib og'zaki chiqish qilish (3–5 daqiqa)
24. Yakuniy baholash: tinglab tushunish + taqdimot + savol-javob

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:**

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil

| | |
|---|---|
| | ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan. Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.<br>- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;<br>- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;<br>- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;<br>- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;<br>- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilganl vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.<br>**Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**<br>- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;<br>- badiiy-ijodiy ishni bajarish;<br>- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;<br>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;<br>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali avollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;<br>- mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida avsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Yapon tili fonetikasi: talaffuzdagi asosiy qoidalar<br>2. Hiragana va Katakana o'qilishidagi xatolarni tuzatish<br>3. Kanji belgilarini to'g'ri o'qish bo'yicha mustaqil mashqlar<br>4. Yapon urg'usi va ohangini o'rganish (audio orqali)<br>5. Oddiy salomlashuv va tanishuv nutqlarini yozish va aytish<br>6. Keigo (hurmat shakllari)ning asosiy turlari va ularni nutqda qo'llash<br>7. Telefon orqali muloqot uchun zarur iboralarni yodlash<br>8. Kundalik hayotda eng ko'p ishlatiladigan iboralar to'plamini tuzish |



| | |
|---|---|
| | 9. O'zi haqida 1 daqiqalik nutq tayyorlash va aytish<br>10. Rasmiy suhbatlarda ishlatiladigan kirish so'zlari<br>11. Muloqotda intonatsiyani to'g'ri qo'llash (audio yozuv bilan)<br>12. Talaffuz mashqlarini yozib olish va o'z nutqini tahlil qilish<br>13. Yo'l so'rash va tariflash suhbatini mustaqil tayyorlash<br>14. Restoranda buyurtma berish dialogi<br>15. Do'konda xarid qilish suhbatini o'rganish<br>16. Uchta kundalik suhbat namunasi yozish va yodlash<br>17. Madaniy mavzuda (yapon taomlari, kiyimi) suhbat tuzish<br>18. Qo'shma gaplardan foydalangan holda suhbat qurish<br>19. Savol berishning turli shakllarini qo'llash mashqlari<br>20. Munozara uchun savol-javob tayyorlash (oddiy mavzu)<br>21. Intervyu shaklida suhbat yozish (2–3 savol-javob)<br>22. Tinglab tushunilgan suhbatni qayta aytib berish<br>23. Dialoglarda sinonim va iboralar yordamida fikr boyitish<br>24. Rol o'ynash matnlarini mustaqil tuzish (mijoz-sotuvchi, talaba-o'qituvchi)<br>25. "Mening kuni" mavzusida 1–2 daqiqalik monolog tayyorlash<br>26. Rasm asosida hikoya tuzish va og'zaki aytish<br>27. Mening oilam haqida monolog<br>28. O'z hobbisi haqida qisqa nutq tayyorlash<br>29. "Mening orzuyim" mavzusida taqdimot yozish<br>30. Qisqa voqeani izchil so'zlab berish mashqi<br>31. Madaniy mavzuda nutq: "Yapon urf-odatlaridan o'rganishlar"<br>32. Yapon tilida bahsga tayyorlanish: oddiy dalillarni ifodalash<br>33. Audio eshitish asosida matn tayyorlash<br>34. O'z nutqini yozib olish va xatolarni aniqlash (fonetika va leksika)<br>35. 3–5 daqiqalik yakuniy chiqish uchun reja tuzish<br>36. Mustaqil yakuniy loyiha: mavzuli taqdimot va nutq mashqi<br><br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar o'quv dasturida tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo'yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>*Bilimlar*<br>1. Yapon tilida og'zaki nutqning asosiy janrlari (dialog, monolog, munozara, taqdimot) va ularning xususiyatlarini biladi.<br>2. Talaffuz, urg'u va intonatsiya qoidalarini chuqur o'zlashtiradi. |